

## KORRUPSION JINOYATLARNI TERGOV QILISH JARAYONI VA TERGOV HARAKATLARI

*Soqiyev Bahriiddin Bahouuddinzoda*

*Toshkent viloyati yuridik texnikum o'quvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni ochish va ularni tergov qilish jarayonlari va Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda ularni fosh etish uchun dastlabki tergovda o'tkazilishi kerak bo'lgan tergov harakatlari haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** uyushgan jinoiy guruhlar, korrupsiyaga qarshi kurash, pora berish va pora olish harakatlari.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni ochish va ularni tergov qilish boshqa turdag'i jinoyatlarga qaraganda muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan amalga oshiriladi. Bunday holatlarda jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish muammolari, bir tomonidan, ularning ko'pchiligi qat'iy maxfiylik sharoitida tayyorlanadi, ya'ni ko'p hollarda guvoh va shohidlarsiz, shuningdek jinoyat izlari sinchkovlik bilan yo'q qilingan holda amalga oshirilishida ko'rindi.

Ikkinchidan, dastlabki tekshirish paytida yo'l qoyiladigan xatolar bilan bog'liq bo'lsa, uchinchidan esa, jinoiy harakatning barcha ishtirokchilari qilmish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi sababli to'g'ri ko'rsatuv berishdan bosh tortishi va bir birini qilmishini yashirishga urinishlari sabab bo'ladi. Shu bilan birga tergov jarayonida dastlabki tergov xodimlariga turli xil shakllarda jinoyat sodir etgan shaxslar va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan qarshilik ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uyushgan jinoiy guruhlar va jamoalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan korruption sxemalarning davlat hokimiyati organlari vakillari bilan birlashishi muammoli hisoblanadi.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni tez va to'la ochish hamda ularni fosh etish uchun dastlabki tergovda o'tkazilishi kerak bo'lgan tergov harakatlari jinoyatlarni sodir etish vaziyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Tergovchi esa shunday tergov vaziyatlaridan kelib chiqib o'tkaziladigan tergov harakatlarini rejalashtiradi. Korruption jinoyatlarda tergov versiyasi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: birinchidan, bevosita jinoyatning ustida, ya'ni pora beruvchi va pora oluvchining o'zaro aloqa almashinuvni jarayonidan jinoyat aniqlangan hollarda bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, muayyan bir tashkilotda, muassasada, korxona yoki muayyan bir hududda pora berish va pora olish harakatlari bo'lganligini isbotlovchi ma'lumotlar bo'lganligi bevosita aniqlangan holatlarda, shuningdek shu yerga aloqador bo'lgan shaxslarning bo'lgan holat yuzasidan bergen xabarlari mavjud bo'lgan vaziyatlarda yuzaga chiqishi

mumkin. Uchinchidan, bo‘lishi mumkin bo‘lgan korruption holatlar haqida taraflardan birining oldindan bergen arizasi va xabari bo‘lishi yoki mansabdar shaxslarning turli xil yo‘llar bilan korruption holatlarda o‘zga shaxslardan nomoddiy manfaatlar ko‘rish holatlari aniqlangan vaziyatlarda yuz berishi mumkin.

Korrupsiya bilan bog‘liq faktlar bo‘yicha jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabablari va asoslaridan kelib chiqib tergovchi jinoyat izlarini yashirish yoki yo‘q qilishni oldini olish maqsadida dastlabki tergov harakatlari sifatida tergovchi tomonidan arizachini, gumon qilinuvchini so‘roq qilishi, tintuv tergov harakatlarini va olib qo‘yish harakatlarini amalga oshirish, hodisa joyini ko‘zdan kechirish, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko‘rsatish va boshqa tezkor tergov harakatlarini amalga oshirishi mumkin.

Jinoyatlarni tergov qilishda so‘roq qilish tergov harakati eng asosiy va ahamiyatli tergov harakati hisoblanib, bunda dalil to‘plashning jinoyat ishini yuritishda eng keng tarqalgan tergov harakati bo‘lib, bir yoki bir necha shaxsdan ya’ni guvoh, gumon qilinuvchi va ayblanuvchidan og‘zaki ma’lumotlar olish va mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi[1]. Misol sifatida korruption holatlar sodir etilgandan so‘ng ma’lum bo‘lish holatlari haqida aytadigan bo‘lsak, bunday holatda gumon qilinuvchi shaxsga nisbatan so‘roq qilish tergov harakati o‘tkaziladi. Gumon qilinuvchini so‘roq qilish, odatda shaxsning jinoyatga aloqadorligi bo‘yicha ma’lum bir dallilar tergovchida bo‘lganida amalga oshiriladi. Agar shaxs ushlab turilgan bo‘lsa so‘roq qilish ushlab turish faktiga asos bo‘lgan dalillarga asosan amalga oshiriladi.

Gumon qilinuvchining so‘roq qilish uni qo‘lga olingandan keyin darxol o‘tkazilishi kerak bo‘ladi. Chunki, darxol o‘tkazilishi tergovchining asosli vaziyatini ta’minlaydi va gumon qilinuvchini o‘z pozitsiyasini o‘ylab ko‘rish imkoniyatidan mahrum qiladi va tergovchi savollariga javoblarning turli variantlaridan, sheriklari bilan ma`lumot almashishdan, har qanday maslahatlar olish va korruption holatlarni amalga oshirish yoki ishtirok etishda gumonlanayotganini fosh qiluvchi jinoyat izlarini yo‘q qilishdan to‘xtatadi. So‘roq davomida mavjud vaziyatni, uning shaxsni, kasbiy ko‘nikmalarini, mansab darajasini, so‘roq qilinuvchi tomonidan qarshi harakatlar darajasini, uning emotsiyonal, psixologik holati va boshqa shartlarni hisobga olgan holda har tomonlama olib borilishi lozim. Tabiiyki, tergov jarayonida gumon qilinuvchi tomonidan yolg‘on ko‘rsatuv berish holatlari ham ko‘plab uchrab turadi. Bunday holatda tergovchi tomonidan so‘roq qilinuvchining yolg‘on ko‘rsatmalarini fosh qilish uchun sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega va ular ko‘pincha quyidagilarda: qilingan ish uchun mas’uliyatdan qochish yoki o‘z aybini yengillshatirish istagi; sheriklarni himoya qilish yoki aksincha, birontasiga qasddan yoki manfaat istagida tuhmat qilishda ko‘rinadi. So‘roq jarayonida bu sabablarni yengib o‘tish, so‘roq qilinuvchini yolg‘onchiligini fosh qilish va turli xil kriminalistik usullarni qo‘llash yo‘li bilan korruption jinoyatlar bilan bog‘liq haqiqiy holat haqida ko‘rsatmalar olinadi. Jumladan, bularga so‘roq qilinuvchi tomonidan

berilgan ko‘rsatuvlarini aniqlashtirish. uning bergen ko‘rsatmalari asossizligi bo‘yicha guman qilinuvchiga mantiqiy isbotlovchi savollar berish, yolg‘on ko‘rsatmalar berish sabablarini aniqlash va bevosita uni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan usullarni qo‘llash, guman qilinuvchining psixologik holatidan foydalanib to‘g‘ri savolni berish usullarini qo‘llash va boshqa holatlarni keltirishimiz mumkin.

Korrupsiya bilan bog‘liq jinoiy ishlar bo‘yicha tergov harakatlarini o‘tkazishda guvohlarni so‘roq qilishni amalga oshirish ma’lum xususiyatlarga ega bo‘ladi. Chunki, birinchidan, tergovning dastlabki bosqichida konkret shaxslarning jinoyatga aloqadorlik darajasi haqidagi aniq ma’lumotlarning yetishmasligi sababli, tergovchi oldida korruption holatlar jarayonida ishtirok etgan shaxslarning statusini aniqlash haqidagi savol paydo bo‘ladi. Ya’ni u yoki boshqa shaxs korrupsiyaviy holatlarga aralashganlikda guman qilinayotganligi yoki uni jinoiy faoliyatning guvohi sifatida tergovga jalg qilinishi lozim. Tergovchi tomonidan tergovning dastlabki bosqichida bu savolga oydinlik kiritishi kelgusida tergov tadbirlarini o‘tkazish uchun muhim ahamiyatga ega, chunki tergovchi tomonidan xato qaror qabul qilingan hollar ham uchrab turadi, aynan shunday holatlar keying tergov harakatlarining natijaviyligi va jinoyatlarning ko‘rsatilgan toifasini fosh qilinishiga ham salbiy ta’sir qilishiga olib keladi. Ikkinchidan, guvohni so‘roq qilishda so‘roq qilinuvchining tergov olib borilayotgan shaxslarga nisbatan bog‘liqlik darajasi yoki korrupsiya bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha jinoiy harakatlarni amalga oshirgan tashkilotlar, korxona, banklar va boshqa muassasa rahbar yoki xodimlari tomonidan noma’qul ta’siri hisobga olingan holda so‘roq tergov harakatlarini amalga oshirishi shart bo‘ladi.

Shuningdek, korruption jinoyatlarni ochishda olib qo‘yish tergov harakatining ham amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, Olib qo‘yish - bu mustaqil tergov harakati bo‘lib, ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ashyo va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma’lum holatdagina surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan o‘tkazilishi mumkin[2].

Olib qo‘yish, ya’ni jinoiy ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lum predmetlar va hujjatlarni musodara qilish bo‘yicha maqsadli yo‘naltirilgan tergov harakati bo‘lib, bu musodara qilinishi kerak bo‘lgan predmetlar va hujjatlarning asosiy tavsiflari hamda ularni saqlanish joylari aniqlangan holda, ular tergovchi ko‘rigidan keyin ularni musodara qilish va tergov uchun ahamiyatli predmet va hujjatlar yoki saqlashga ta’qiqlash sifatida olib qo‘yish bayonnomasiga qo‘sish haqida qaror qabul qilinish mumkin.

Korrupsiya bilan bog‘liq jiniylatlarni tergov qilishda tintuv tergov harakatini o‘tkazish tergovchiga jinoiy ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazkur tergov harakatlarini o‘tkazish uchun asoslar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 158-moddasida keltirilgan. Unga ko‘ra tintuvni o‘tkazish uchun asoslar quyidagilar bo‘lishi

mumkin: Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o‘zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o‘ylash uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda tintuv o‘tkazishga haqlidir[3]. Tintuv tergov harakati asosan tergovning dastlabki bosqichida o‘tkaziladi. Lekin, ayrim hollarda korruption jinoyatlarning predmeti bo‘lishi mumkin bo‘lgan jinoiy yo‘l bilan topilgan pul mablag‘lari va moddiy manfaat evaziga topilgan mulkning joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni olishda bu protsessual harakat tergovning istalgan bosqichida o‘tkazilishi mumkin. Tintuv tergov harakatida shaxsiy tintuv va poraxo‘r sheriklarining uy-joylarini hamda mansabdor shaxsning, ya’ni pora oluvchining ish joylarini tintuv qilish mazkur jinoyatni tayyorlash bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lgan hujjatlar va pora predmetlarini, jinoiy yo‘l bilan topilgan boyliklarni topish va olib qo‘yish maqsadida amalga oshiriladi. Tintuvni o‘tkazish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi ma’lumotlar turli manbalardan olinishi mumkin, jumladan gumon qilinuvchi va guvohlarning so‘roq, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalaridan. Bunda tezkor-qidiruv faoliyat natjalaridan foydalanib tergovchi tezkor manbani shifrlash uchun zarur bo‘lgan choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi.

Ko‘p hollarda shaxsiy tituv va xonada o‘tkaziladigan tintuv harakatlari bir vaqtning o‘zida o‘tkaziladi. Pora olganlikda ayblangan shaxsning uyida, unga tegishli binoda tintuv o‘tkazishdan oldin unda qanday buyumlar va qimmatbaho narsalar borligi, ular qayerda joylashganligi, qachon, qayerda va kimdan olganligik holatlarini bevosita o‘zidan so‘rab bilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pora oluvchi, pora beruvchi va pora olish-berishda ishtirok etgan shaxslarning turar joyi boshqa uy-joylarini tintuv qilishda tezkor-qidiruv ma’lumotlariga ham ahamiyat berish kerak bo‘ladi. Shaxsiy tintuv va xonada tintuv tergov harakatlari amalga oshirilayotganda asosiy e’tibor jinoyat sodir etgan shaxsning sheriklarini tasdiqlovchi xatlar, pochta kvitansiyalari, turli xil fotosuratlar, hamda yozishmalarni tasdiqlovchi yozuvlar va ularning aloqada bo‘lganliklarini tasdiqlovchi telefon nomerlarga qaratilishi mazkur tergov harakatining natijaviyligini ta’minlaydi.

Sheningdek, korruption jinoyatlarni ochish va tergov qilishda boshlang‘ich va kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakati hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish hisoblanadi. Shuning uchun ushbu tergov harakatini tezroq, o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazish tergovchi uchun jinoyatni ochishda unumli natija beradi. Mazkur tergov harakatini o‘tkazish uchun asoslar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 135-moddasida quyidagicha: Jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko‘zdan kechirish o‘tkazish mumkinligi keltirilgan. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan

kechirish jinoyatni ochishda aybdorni fosh qilishi mumkin bo‘lgan holatlarni bevosita o‘rganish, dalillarni topish, uni protsessual rasmiylashtirib olishga qaratilgan harakat hisoblanadi.

Pora olish jinoyatida ko‘pincha hujjatlarni ko‘zdan kechirishga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda, pora bergen shaxsning manfaati uchun qilingan noto‘g‘ri va g‘ayriqonuniy harakatni va poraning miqdorini ko‘rsatuvchi ma’lumotlarni tasdiqlaydigan faktlarni topish mumkin. Boshqa tergov harakatlarida bo‘lgani kabi narsa va hujjatlarni ko‘zdan kechirishda ham kriminalistik-texnik vositalardan foydalanish mumkin. Biroq, zaruriy shart sifatida topilgan va ko‘zdan kechirilishi lozim bo‘lgan narsa va hujjatlarning keyinchalik jinoyat ishi bo‘yicha daliliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkinligini nazarda tutgan holda ularning yo‘qolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Agar, dastlabki materiallarda pora olgan shaxs haqida aniq ko‘rsatma bo‘lmasa, bunday hollarda, hujjatlarni ko‘zdan kechirish pora olgan shaxsni aniqlab olishga yordam beradi[4]. Shu maqsadda pora berishda tahmin qilingan shaxsning murojaat qilgan tashkilotda pora bergen shaxsni qiziqtiruvchi masalani ko‘rish va hal qilinishi kerak bo‘lgan mansabdor shaxslarning doirasini aniqlab olish uchun hujjatlar ko‘zdan kechiriladi. Agar uning iltimosi qondirilganligi aniqlansa, bu holda hujjatlarni ko‘zdan kechirish bilan pora bergen shaxsni qiziqtirgan ishni mansabdor shaxslardan qaysi biri bajarganligini aniqlash ancha osonlashadi.

Tergovchi tomonidan tintuv yoki olib qo‘yish tergov harakatini amalgalashirgandan so‘ng, undan toplangan dalillarni ishonchligini aniqlash uchun ko‘p hollatda sud ekspertizasini tayinlash oldidan musodara qilingan obyektlar, predmetlar va hujjatlarni ko‘rikdan o‘tkazish zarurati vujudga keladi. Hujjatlar ko‘rigi hujjatlarni qalbakilashtirish alomatlarini, ular tarkibidagi ma’lumotga ta’sir usullarini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Tekshiruv davomida puxta tekshirish va qayta tekshirishni talab qiluvchi ma’lumotning jamlanishiga qarab, ish bo‘yicha so‘roq qilingan shaxslarning ko‘rsatmalarida aniqlangan ziddiyatlarni hamda ular ko‘rsatmalarini va ish bo‘yicha o‘tkazilgan ekspertizalarning xulosalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun yuzlashtirish o‘tkaziladi. Mazkur tegov harakatini o‘tkazish uchun asoslar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 122-moddasida keltirilgan. Unga ko‘ra quyidagicha: Yuzlashtirish ilgari so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda bu qarama-qarshiliklarning sababini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

Shuningdek korruption jinoyatlarni ochish va tergov qilishda tergovchi tomonidan tergov harakatlarini qanchalik puxta har tomonlama olib borishga harakat qilsa ham uning asosiy haqiqatni va uning natijadorligiga ta’sir etuvchi omillar ham huquqni qo‘llash amaliyotida yo‘q emas, albatta. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin. **Birinchidan**, tergovchi tomonidan tergov

harakatlari olib borilayotganda unga qarshilik ko‘rsatish maqsadida gumon qilinuvchining yaqinlari, ya’ni mansabdar shaxslar tomonidan tergovchiga turli shakldagi bosim o‘tkazish, **ikkinchidan**, gumon qilinuvchining shaxsi, uning yuqori kasbiy darajaga ega ekanligi, egallab turgan lavozimi, huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatining shakl va usullarini, tezkor-qidiruv ishlari va tergovni yaxshi bilish holatlari, **uchinchidan**, tergov davomida mazkur sohani tartibga solish borasidagi bir qator me’yoriy hujjatlardagi mavjud kamchiliklar, **to‘rtinchidan**, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar doirasida tergovini tashkil qilishda tergovchining kasbiy tayyorgarlik darajasining va tajribasining yetishmasligi kabi holatlar sabab bo‘lishi mumkin.

### Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. // Mualliflar jamoasi. / yu.f.d., dots. G.Z.To‘laganova va yu.f.n., dots. S.M.Raxmonovalarning umumiy tahriri ostida –Toshkent: TDYU nashriyoti, 2016. – 468 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (2020 yil 1-aprelgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘srimchalar bilan) Rasmiy nashr – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent.: “Adolat”, 2021 y. – 952 b.
3. Tulaganova G.Z. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish tergov haratini o‘tkazishning umumiy tartibi. Risola. – T.: TDYU, 2016. 66 bet.
4. Alimova P.A., Norboyeva A.N., Ayrim turdag‘i jinoyatlarni tergov qilish metodikasi. – T.: TDYI, 2007. – 62 bet.